

O'ZBEKISTONDA MADANIY MEROS VA TURIZMNING RIVOJLANISHI

Ulugboyeva Ezozahon Inomjanovna

Toshkent shahar asiaturistik firmasi Nemis tili tour operator

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm va madaniy merosni saqlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, O'zbekistonning boy tarixiy obidalari qanday boshqarilayotgani va sayyohlarga taqdim etilayotgani hamda turizmning ushbu madaniy boyliklarga ta'siri keng yoritib berildi xamda turizmni rivojlantirish uchun takliflar berildi.*

Tayanch so'zlar: *turizm, butunjahon merosi, turistik industriya, ma'naviy tafakkur, estetika, biznes faoliyati, ta'lim, milliy mafkura.*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В этой статье рассматривается взаимосвязь между туризмом и сохранением культурного наследия, способы управления богатыми историческими памятниками Узбекистана и их представления туристам, а также влияние туризма на эти культурные ценности, а также предложения по развитию туризма.*

Ключевые слова: *туризм, всемирное наследие, туристическая индустрия, духовное мышление, эстетика, предпринимательская деятельность, образование, национальная идеология.*

DEVELOPMENT OF CULTURAL HERITAGE AND TOURISM IN UZBEKISTAN

Abstarct: *In this article, the interrelationship between tourism and cultural heritage preservation, how Uzbekistan's rich historical monuments are managed and presented to tourists, and the impact of tourism on these cultural assets, and suggestions for the development of tourism are given.*

Keywords: *tourism, world heritage, tourism industry, spiritual thinking, aesthetics, business activities, education, national ideology.*

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib ularning aksariyati hozirda YuNESKOning Butunjahon merosi ob'ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

Bugungi kunda YuNESKOning Butunjahon merosi ob'ektlari Reprezentativ ro'yxatiga 4 ta me'moriy majmua - Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016) va 9 nomoddiy meros ob'ektlari kiradi [1].

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ming yillar mobaynida, minoralar va qadimiy gumbazlar ko'plab shaharlarning tashrif qog'ozi, shahar manzaralari, ularning diniy va ma'rifiy muassasalari - masjid va madrasalarining go'zal aksiga aylandi.

Mustaqil O'zbekistonda, qadimiy me'morlarning ushbu noyob asarlari, bebaho madaniy meros ob'ektlari sifatida maxsus maqomga ega bo'ldi va ular davlatning alohida muhofazasida. O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm tarmoqlariga qaratilayotgan yuqori e'tibor natijasida yurtimizga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy mehmonlar hamda sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subektlariga qulay sharoitlar, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Jumladan, turizm tarmoqlari hamda joylashtirish vositalarida xizmat turlarining yaqqol ortishi va yuqori servis salohiyatining yo'lga qo'yilganini kuzatish mumkin. Bu borada "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya obektlarini tasniflash tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan. Ushbu Nizom talablariga binoan esa sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish o'zining samarali natijasini berdi.

Sababi turizm xizmatlarini sertifikatlashtirishning eski tizimi o'zini oqlamagan bo'lsa, ko'p yillar davomida turizm xizmatlari sifat va xavfsizlik borasidagi standartlarga javob bermasdi. Turizm xizmatlari uzoq davrlardan qolgan va dolzarbligini yo'qotgan, xalqaro talablarga javob bermaydigan standartlar asosida sertifikatlashtirilar edi.

Bunda Markaz qoshida Turizm xizmatlarini standartlashtirish sohasidagi texnik qo'mita tashkil etilgan. Hozirgi kungacha ushbu texnik qo'mita tomonidan xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan 14 ta davlat standarti ishlab chiqilgan bo'lib, so'nggi yillarda ular asosida sertifikatlashtirilgan joylashtirish vositalarida ko'rsatiladigan xizmatlarning xavfsizligi va sifatini ta'minlash sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, mehmonxona biznesi vakillariga qulaylik yaratish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bazaviy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'mak beruvchi joylashtirish vositalari xodimlari uchun matn va audio materiallaridan tashkil topgan mobil ilova ishlab chiqilgan.

O'zbekiston tomonidan YUNESKOning sohaga oid 4 ta Konvensiyasi ratifikatsiya qilingan bo'lib, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari Umumjahon merosi ro'yxatiga, Shoshmaqom, Navro'z, Boysun madaniy muhiti, Askiya, Katta ashula, Palov madaniyati va an'anasi, Marg'ilon hunarmandchilik maktabining atlas va adras to'qish texnologiyasi kabi nomoddiy madaniy meros namunalari YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi konselariyasi hujjatlari "Jahon xotirasi" dasturidan joy olgan [2].

O'zbekiston xalqlarining tarixiy, ma'naviy va madaniy yo'qotishlariga olib keldi.

Zero, mamlakatimiz suverenitetini tom ma'noda ma'naviy, milliy, diniy va tarixiy qadriyatlarni tiklamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli, O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq respublikada siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, xalqning ma'naviy merosi va madaniy qadriyatlarini tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Jamiyatni ma'naviy yangilash, milliy mustaqillik g'oyasini shakllantirish O'zbekiston

Respublikasi suverenitetini mustahkamlashning ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy madaniy o'zgarishlarning milliy modeli suveren milliy rivojlanish dasturining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ma'naviyat tafakkur qiladigan shaxsning fenomenologik mulki bo'lib, uning butun qadriyatlar tizimiga kiradi, bu - axloq, estetika, biznes faoliyati, ta'lim, tarixga, Vatanga, oilaga, jamiyatga va shu kabilarga munosabatda namoyon bo'ladi. Bu - insonning ichki dunyosini tashkil etadigan bilimlar, g'oyalar, xayolotlar, his-tuyg'ular, kayfiyatlarga ega bo'lishi demakdir. U ma'naviy meros bilan belgilanadi, umuminsoniy madaniyat bilan mos keladi, moddiy va ma'naviy qadriyatlar tushunchasini o'z ichiga oladi, ta'lim bilan ta'minlanadi va milliy mafkuraga asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy tizimni isloh qilish bilan bir vaqtda milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash boshlandi. Bu jarayonda tarixiy xotira, xalqning ob'ektiv va haqiqiy tarixini tiklash juda muhim o'rin egallaydi. Tarixiy xotira milliy o'zlikni anglashning asosidir. Bu ona tiliga, butun madaniy merosga nafaqat tarixiy obidalar xazinasi sifatida, balki, millat taraqqiyotiga yordam beradigan faol milliy o'zlikni anglash instituti sifatida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ma'naviy tiklanishni amalga oshirish uchun millat o'zining boy tarixi, ming yillik madaniy tajribasi, buyuk ajdodlari merosi asosida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borayotganini anglab etishi kerak [2].

O'rta Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning boy tarixiy merosidan, shu jumladan, Sharqning Uyg'onish davrida yashagan buyuk ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan boy tarixiy merosdan foydalanish mamlakatni ma'naviy tiklanishining muhim sharti bo'ldi. Ularning eng katta yutug'i shundaki, ular insoniylik g'oyalariga asoslangan jamiyat haqida fikr yuritganlar, inson qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'kidlaganlar.

O'zbekistonda buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirib, yubiley tantanalari tashkil etildi, yodgorlik majmualari barpo qilindi.

O'zbekiston rahbariyati milliy an'analarni asrab-avaylash va rivojlantirish, respublikada istiqomat qiluvchi xalqlar va millatlarning ona tili va madaniyatini tiklash borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekistondagi turli konfessiyalarning izdoshlari tinch va hamjihatlikda yashamoqda. Uzoq yillar va hatto asrlar davomida birga yashab kelgan musulmonlar, xristianlar va boshqa din vakillari bir-birini tushunishni o'rgandilar, natijada bag'rikenglik an'analari shakllandi.

Ma'naviyatni tiklash jarayonida O'zbekiston intellektual, axloqiy va estetik tadbirlarni o'tkazishda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, YUNESKO bilan hamkorlik qiladi. YUNESKONing asosiy vazifasi "BMT Nizomida e'tirof etilgan umuminsoniy hurmat, adolat, qonuniylik va inson huquqlari, shuningdek, asosiy erkinliklarni ta'minlash maqsadida xalqlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashish" dir. O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi hamkorlik orqali muhim voqealar yangi xalqaro bosqichga ko'tarilmoqda. YUNESKO nafaqat O'zbekistonda, balki butunjahon miqyosidagi tarixiy obidalar, noyob shaharlar va me'moriy obidalarni targ'ib qilmoqda. YUNESKONing Jahon tarixiy va madaniy merosi ro'yxatiga 7000 dan ortiq tarixiy me'morchilik va san'at yodgorliklari kiritilgan.

Uzoq yillar davomida O'zbekiston arxeologlari Surxondaryoda Yaponiya olimlari bilan, Qoraqalpog'istonda Sidney universiteti arxeologlari bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini

olib bormoqdalar. O'zbekiston Milliy universiteti tarixchilari Angliya, Fransiya, Daniya universitetlaridagi hamkasblari bilan bir necha yillardan buyon hamkorlik qilib kelmoqdalar. O'zbekistonning bir qator taniqli olimlari xorijiy mamlakatlarning tarmoq akademiyalariga a'zo bo'lishdi [3].

O'zbekiston uch ming yillik ulug'vor va muhtasham tarixga ega. Yurtimizda jahonshumul sivilizatsiyalar, yirik imperiyalar, havas qilsa arzigulik shaharlar va bebaho me'moriy obidalar vujudga kelgan hamda yaratilgan. Ayniqsa buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tengsiz madaniy meros insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirga. Ana shunday ulug'vor va boy madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va uni ommalashtirish bo'yicha keyingi 5 yil ichida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan juda katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT Bosh assambleiyasi 75-sessiyasida ilgari surgan bir qator tashabbuslari ichida xalqimiz madaniyati va tarixini ommalashtirishga qaratilgan madaniy forum o'tkazish taklifi xalqaro hamjamiyat, hususan YuNESKO tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekistonning tarixiy, me'moriy, arxeologik va madaniy merosini asrab-avaylash va ommalashtirish, turistik obyektlarni rekonstruksiya va restavratsiya qilish sohasida xorijiy ekspertlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, restavratsiya ishlari va me'moriy merosni asrab-avaylashni takomillashtirish bo'yicha strategik taklif va tavsiyalar tayyorlash, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi direktori Tursunali Kuziyev xalqaro simpoziumda "Bu simpozium va unda qilinadigan ma'ruzalar nafaqat O'zbekiston va Xitoy davlatlari uchun, ularning xalqlari va ayniqsa yoshlari uchun, balki butun dunyo hamjamiyati uchun nihoyatda dolzarb bo'lib turgan masala va muammolarni, ularning yechimini birgalikda, tajriba va yutuqlarni bahamlashgan holda ko'rib chiqish imkonini beradi. O'zbekiston va Xitoy, bu ikkita buyuk tarix, inklyuziv madaniyat va insoniyat sivilizatsiyasining ilk beshiklaridan bo'lgan davlatlar." - deydi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi direktori v.b. Tursunali Kuziyev [3].

Shuningdek agentlik rahbarining - "Davlatlarimiz hududida saqlanib qolgan madaniy merosni asrab avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazib berishdek zimmamizdagi missiyani to'la to'kis uddalay olayapmizmi. Bunday bahsli savollarga bugungiday ilmiy amaliy anjumanlar baho berishi kerak, ming yilliklar osha bizgacha yetib kelgan madaniy merosni asrab avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazib berishni ta'minlash - bu biz bilan sizning tarixiy burchimizdir. O'zbekiston va Xitoyning turizmni rivojlantirish bo'yicha potensiali va resurslari juda katta. Ikkala davlatda ham turizmning xohlagan turi: madaniy-tarixiy, tibbiyot va sog'lomlashtirish, voqeaviy, festivallar, ekoturizm, ziyorat, gastronomik, qishloq, eski shahar turizmi kabi yangi va perspektiv turizmlargacha keng va rang-barang palitra va imkoniyatlarga mavjud.

Biroq, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yillar o'tgan sari madaniy-tarixiy turizmning ahamiyati va buyukligi tobora oshib boraveradi. Demak ularni asrab qolish uchun, turli tabiiy va notabiiy tahdidlardan himoya, muhofaza qilish, asrab-avaylashimiz uchun juda ko'p zamonaviy tadqiqot, texnologiya va amaliyotlarni mujassam qilgan chora-tadbirlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilmog'i darkor."- degan fikrlari ikki mamlakatning madaniy merosini asrash va axamiyatini oshirishdagi aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish kerakligini anglatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizning noyob arxeologik va me'moriy merosini asrab-avaylashga mas'ul vazirlik va idoralar vakillari o'rtasida konstruktiv muloqot bo'lib o'tmoqda. Bu borada mavjud tashabbuslar bo'yicha ijobiy tajriba almashish, shuningdek, O'zbekistonning qadimiy obidalarini asrab-avaylash va tiklashga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish juda muhim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda muzeyshunoslik sohalarini rivojlanishida Uyg'onish davri bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu, ayniqsa, yangi muzeylar tashkil etilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fikrimiz dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 dekabrda "O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 1003-qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida «Maqom muzeyi» faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 8 avgustdagi 621-sonli qarori, 2019 yil 30 maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sarmishsoy", "Shahrisabz", "Termiz" va "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonalarini faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 443-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 iyuldagi "Erkin Vohidov memorial muzeyi hamda Haziniy uy-muzeyi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 630-qarorlarni ko'rsatib o'tish mumkin [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Toshkent muzeyini tashkil etilishi muzeyshunoslikda erishilgan katta yutuqlardan biri bo'ldi. Adiblar xiyobonida joylashgan mazkur muzey yurtimiz poytaxti qadimiy Shosh tarixi haqida tarixning jonli guvohlari deb hisoblanadigan eksponatlar orqali hikoya qilinadi. "Buyuk ipak yo'lining gavjum chorrahasida joylashgan Toshkent asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazlaridan bo'lib kelgan. Vatanimizning oltin ostonasi bo'lmish poytaxtimiz bugungi kunda yanada rivojlanib, go'zal va obod megapolislardan biriga aylanib bormoqda. Lekin shunday katta shahar shu vaqtga qadar o'zining muzeyiga ega emas edi".

Tarixdan ma'lumki, dunyoning yirik xorijiy muzeylarida kolleksiyalarning to'planishi, saqlanishi va namoyish etilishi o'sha mamlakat aholisining yaratgan moddiy-madaniy yodgorliklari tarixi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Jahon muzeyshunosligida tarixiy-madaniy merosni saqlab qolishning ustuvor yo'nalishlari, ularni ilmiy tadqiq va targ'ib etish orqali muzey kommunikatsiyasini takomillashtirishni bugungi kun tartibiga qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-son Farmonlarida bajarishi kerak bo'lgan ustuvor vazifalar aynan muzeyshunoslik ilmining yanada ravnaq topishida mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishishi tabiiydir.

Bilamizki, jahonning ko'plab muzeylari hamda ilmiy markazlarida, xususan O'zbekistonda ham muzey ashyolarini komplektlash va atributlashning ilmiy asoslarini tadqiq etish, ilmiy tavsiflash, fondlarda informatsion komplektlash ishini rivojlantirish, boyitish, muzey kolleksiyalarini saqlash, konservatsiyalash, artefaktlarning 3D ko'rinishini yaratish, ularning elektron reestrini tuzish kabi vazifalar xalqaro darajada o'rganilmoqda. Google Art Project, Historic Moments - "Tarix zarvaraqi", Europeana global loyihasi, Goskatalog.ru kabi elektron kataloglarda muzey kolleksiyalarining yagona ma'lumotlar bazasi yaratilmoqda. Bu

jarayonlar madaniy merosga bo'lgan munosabat va uning tadqiq etish zaruriyatini qay darajada muhimligidan dalolat beradi [4].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jahonning yirik muzeylarida saqlanayotgan O'zbekistonga oid ashyolarni o'rganish, ajdodlar moddiy-ma'naviy merosi va ularning asosiy xususiyatlarini tadqiq etish tarix, muzeyshunoslik va san'atshunoslik ilmini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish, kelajakda sohaga oid tadqiqotlarni bajarishda asos vazifasini o'taydi. Muzey faoliyati muzey fondlari asosida amalga oshiriladi. Muzey kolleksiyalarini to'plash - ilmiy izlanish samarasidir. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq holda komplektlashning zamonaviy usuli - informatsion komplektlash vujudga kelganligi natijasida xorijiy muzeylar, kutubxonalar internet saytlaridan foydalanish orqali, O'zbekistonda xorijiy muzeylarning tajribalaridan foydalangan holda muzey kommunikatsiyasini rivojlantirishda katta samara beradi. Bunda dunyo bo'ylab tarqab ketgan O'zbekistonga oid merosni o'rganishda jahon muzeylarining internet saytlariga qo'yilgan ma'lumotlar, fotosuratlar mavzuga oid ma'lumotlarni to'plash, ya'ni zamonaviy informatsion komplektlashning muhim tamoyili bo'lib xizmat qiladi. Bilim olishning ushbu zamonaviy usullari videomuzeylar, virtual sayohatlar va elektron kataloglar orqali amalga oshiriladi. Albatta, bu borada biz, soha vakillari muzeyshunoslik ilmining Renessans davrini yaratishda hozir turishimiz, badiiy ta'lim yo'nalishida esa amaliyot bilan integratsion jarayonda bo'lishimiz darkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Том 1 № 9 (2023): “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 9-sonli respublika ilmiy konferensiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” gi PF-6199- farmoni. 2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz
3. Erkayeve Barno Qarshi davlat Universiteti magistranti maqolasidan foydalanib tayyorlandi.
4. Ro'ziyev Sh. “O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi” J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>